

BOBORAHIM MASHRAB – MUMTOZ ADABIYOT VAKILI**Ibroimova Shaxinabonu Mexriddin qizi***BuxDU Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: maqolada namanganlik Boborahim Mashrab hayoti va ijodi, she'riyatining g'oyaviy xususiyatlari hamda shoir ijodiy faoliyatini yoritishda “Qissayi Mashrab” asarining ahamiyati haqida bahs yuritiladi.

Kalit so‘zlar: “Qissayi Mashrab”, “Devoni Mashrab”, g’azal, murabba, muxammas, mustazod, musaddas, tasavvuf, so‘fiyona she’rlar.

Boborahim Mashrab – o‘zbek mumtoz adabiyotining atoqli namoyondalaridan biri. Mashrabning hayoti va ijodiy faoliyati asosan O‘rta Osiyoda kechgan, u ishqiy, tasawufiy she’rlari bilan shuhrat qozongan, xalqning qalbidan chuqur joy olib, o‘zi to‘g’risida hikoya, rivoyat, naql va afsonalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Mashrab nafaqat otashzabon, balki o‘sha zamondaadolatsizlik, zo‘ravonlik va jaholat bilan aslo kelisha olmaydigan ajoyib bir shaxs edi.

Boborahim Mashrab haqidagi eng mashhur adabiy-biografik asarlardan biri “Qissayi Mashrab” asaridir. Taxminlarga ko‘ra, asar “Tazkirayi qalandaron”da zikr qilingan Mashrabning hayotidagi doimiy do’sti, muxlisi, qalandar shoir Pirmat Setoriy tomonigan kitobat qilingan. Ushbu kitobda Mashrabning she’rlaridan tashqari, uning shaxsiyati, xatti-harakatlari haqida hikoyalari, naqllar va rivoyatlar ham keltirilgan. “Tazkirayi qalandaron” asari Erkin Musurmonov tomonidan 1995-yil “Rahimbobo Mashrab va uning badiiy adabiyotdagi talqini” nomli nomzodlik dissertatsiyasida tahlil qilingan.

Shoirning tavallud topgan joyi, shaxsiy qiyofasi haqida Maleho Samarcandiyning “Muzakkir ul-ashob” tazkirasida ma’lumot keltiriladi. Mashrab haqida ma’lumot beruvchi yana bir manba Ziyovuddin Bog’istoniyning “Tazkirayi qalandaron” asaridir. Bu asarda Mashrab rahnamoligidagi darvesh va qalandar shoirlar haqida fikr yuritiladi. XVIII-XIX asrlar davomida yozilgan tarixiy asarlarda ham Mashrab to‘g’risida ayrim ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin.

Mashrab 1640-yilda Namanganda Valibobo bo‘zchi oilasida tug‘ilgan. Otasidan yosh yetim qolishiga qaramay chuqur bilim olishga harakat qiladi. Boborahim Mashrab zamonasining eng ulug’ shayxlaridan bo‘lgan Mulla bozor Oxund qo’llidan tahsil oladi. U yerda diniy va tasawufiy falsafani o‘rganadi. Hofiz, Navoiy va Lutfiy she’riyatidan bahramand bo‘ladi.

Boborahim Mashrab Namanganda har tomonlama puxta bilimga ega bo‘lgandan so‘ng, undagi bu qobiliyatni ko‘rgan ustozuni Ofoq Xoja huzuriga yuboradi. U yerda Mashrab bilimlarini yanada chuqur o‘zlashtiradi. Mashrab Ofoq Xoja huzurida 7 yil

xizmat qiladi, tariqat bosqichlarini bosib o'tib, tasawuf ta'limoti g'oyalarini she'riyatiga olib kiradi.

“Qissayi Mashrab” dagi rivoyatlar orqali shoirning ruhiy takomil bosqichlari haqida xulosalar chiqarib olishimiz mumkin. Aytishlaricha, Ofoq Xoja kanizagi bilan Mashrab o'rtasidagi munozara har xil sharhanadi. Kimdir munozarada dunyoviy mazmun ko'rsa, kimdir ilohiy ishq darajalarini ko'radi: “Kanizak noz-u karashmalar bilan dediki: “Ey Mashrab, to yetti yildirki, seni dog'i ishqing mani siynamg'a joy olibdur. Bukun mening birla bir yerda o'llturmasang, qiyomatda mani qo'lim sening etagingda bo'lg'ay”. Shoh Mashrab ani ko'rub behud bo'ldilar. Yana hushlariga kelib aytdilarki: “Ey bor Xudoyo, muningdek ofatijon bandalaring bor ekan, - deb behud bo'lib yiqildilar”. Bu voqeа ayon bo'lgach, Ofoq Xoja “Qizil libos kiyib shamshiri barahna birla ro'baro' bo'ldilar”,²⁸ - deyiladi qissada. “Ranglar so'fiy ruhiy holatlari. Alloh tomon safaridagi daraja-bosqichlarini bildirib turadi... Qizil rangda solikning ruhi vujuddan ajrala boshlagani, ma'rifatga yaqinlashgani, ma'naviy ruhiyat olamini anglagani ma'lum qilinadi. Ammo, bu bosqich hali hirs qutqusidan xalos bo'limgan bir holatdir”.²⁹

Demak, Mashrabning xud yoki behud bo'lishi Ofoq Xojaning qizil libosda tasvirlanishidan shoir ma'rifatga yaqinlashgan. Xuddi shunday ruhiy darajada solikka pirning rahnamoligi kerak bo'ladi. Shuning uchun ham ustoz Ofoq Xoja Mashrabni to'g'ri ruhiy manzilga yo'naltirish uchun shahvat tomiriga muhr qizdirib bosadi.

Qissadagi ayrim rivoyatlar insoniyat tabiatidagi uni tanazzulga yetaklovchi qusurlardan, xislatlardan ogohlantiradi. Jumladan, manmanlik, takabburlik kishini nazardan qoldiradi, Allohdan uzoqlashtiradi. Bunga Mashrabning munosabati qisqagina rivoyatda yorqin ifodalab beriladi. Mashrab Buxoroyi Sharifda bir qalandardan otini so'raydi. “Mani otim Ponsadmandur. Shoh Mashrab aydilar: Shayton bir marotaba manlik qilib bo'ynig'a tavqi la'nat tushti, san besh yuz manni (Ponsad – fors - tojikchada besh yuz demakdir. – I.A.) ko'tarib yurursan. Munosib shulki sandin qochmoq kerak”.³⁰

Boborahim Mashrabning “Qissayi Mashrab”ida shunday bir rivoyat keltiriladi: “Mashrab bir necha chaqirim minib yo'l bosgan otini oyog'ini chopishni buyuradi. Muridlari sababini so'rashganda, - “To O'rdadin registoni Buxorog'a kelguncha ushbu otini minib, Allohi taolodin g'ofil bo'ldim. Yana har bandayi mo'min bu otini ustig'a minib, Xudoyi taolodin g'ofil bo'lmasun, shul sababdin o'lduringlar, dedim”, - deb javob beradilar. Bu bilan Mashrab qanday mansab martaba bo'lsa-da, insonning “oyog'i yerdan uzilmasin”, ko'ngli Allohdan uzoqlashmasin degan fikrni ilgari surgan.

¹ Qissayi Mashrab, T., 1992 138-b.

²⁹ N. Komilov. Tasavvuf, 2- kitob. T., 1999, 175-b.

³⁰ Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. T. O'z.Res.FA. Fan, 2006, 100-b.

Xulosa qilib aytganda, Mashrabning adabiy-ijodiy merosida diniy va tasawufiy g'oyalar ham, o'sha asrlarda ayniqsa keng tarqalgan qalandarlik tariqati g'oyalarini ham sezilarli o'rinn egallaydi. Shoир islam ta'limotidagi asosiy qoidalarni, farzu amallarni qabul qilgani holda, ba'zilariga qarshi ochiqdan ochiq salbiy munosabatini ham asarlarda ifoda etadi. "Qissayi Mashrab" rivoyat tarzida yaratilgan bo'lsa ham, bizga shoirning dunyoqarashi, shaxsiyati, asarlarining mazmun-mohiyatini anglashimizda asosiy manba vazifasini o'taydi. Shoир asarlari bilan qissadagi fikrlarni mulohaza qilib, ayrim muammolarga oydinlik kiritishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. –T. O'z.Res.FA. Fan, 2006, 100-b.
2. Komilov N. Tasavvuf. 2- kitob. –T. 1999, 175-b.
3. Qissayi Mashrab, –T. 1992. 138-b.
4. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. –T. Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006, 46-b.